

HAMSHIRALIK ISHIDA BOSHQARISH FANINI O'QITISHDA SAMARALI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Shakirova Dildora Davlyatovna, Toshkent davlat tibbiyot universiteti
2-son "Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash" menejmenti
kafedrasi assistenti*

EFFECTIVE USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING MANAGEMENT SCIENCE IN NURSING

*Shakirova Dildora Davlyatovna, Assistant Professor, Department of
Public Health and Healthcare Management, Tashkent State
Medical University No.2*

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ УПРАВЛЕНИЯ В СЕСТРИНСКОМ ДЕЛЕ

*Шакирова Дилдора Давлятовна, доцент кафедры
общественного здравоохранения и управления
здравоохранением Ташкентского государственного
медицинского университета №2*

Annotatsiya: Maqolada hamshiralik ishida boshqaruv fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, bo'lajak rahbar hamshiralarni murakkab va doimiy o'zgarib boruvchi sog'liqni saqlash tizimiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yondashuvlar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda raqamli vositalar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash va buning natijasida ta'lim jarayonining sifatini, samaradorligini va talabalarning jalb qilinish darajasini sezilarli darajada oshirish kabi jihatlariga ham urg'u berilgan.

Tayanch iboralar: hamshiralik ishida boshqaruv, sog'liqni saqlash tizimi, an'anaviy o'qitish usullari, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: The article describes the methods of effective use of modern technologies in teaching nursing management, approaches that are crucial in preparing future nurse leaders for the complex and constantly changing healthcare system. In addition, the article emphasizes the use of digital tools and innovative technologies in addition to traditional teaching methods and significantly increasing the quality, efficiency and level of student engagement of the educational process.


Key words: nursing management, healthcare system, traditional teaching methods, innovative technologies.

Аннотация: В статье описывается эффективное использование современных технологий в обучении управлению сестринским делом, подходы, имеющие решающее значение для подготовки будущих лидеров сестринского дела к сложной и постоянно меняющейся системе здравоохранения. Кроме того, в статье подчеркивается использование цифровых инструментов и инновационных технологий в дополнение к традиционным методам обучения, что значительно повышает качество, эффективность и уровень вовлеченности студентов в образовательный процесс.

Ключевые слова: управление сестринским делом, система здравоохранения, традиционные методы обучения, инновационные технологии.



<https://orcid.org/0009-0006-7762-2758>
e-mail:
dildoradavlatovna87@gmail.com



Kirish. Hamshiralik ishida boshqaruv fani (inglizcha: “Nursing Management” yoki “Management Science in Nursing”) — bu hamshiralik xizmatlarini samarali rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, rahbarlik qilish va nazorat qilishga qaratilgan fundamental fandır. Bu fan hamshiralik amaliyotining klinik jihatlar bilan bir qatorda, sogʻliqni saqlash muassasalarida yuqori sifatli, xavfsiz va samarali tibbiy yordam koʻrsatishni taʼminlash uchun zarur boʻlgan liderlik, tashkiliy va boshqaruv koʻnikmalarini oʻz ichiga oladi[1,2,3,]. Hamshiralik ishida boshqaruv fanining asosiy maqsadi bemorlarga koʻrsatilayotgan yordam sifatini oshirish, sogʻliqni saqlash resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni taʼminlash, hamshira xodimlarning kasbiy rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash va ish muhitini yaxshilash va amaliyotda xavfsizlik va axloqiy standartlarga rioya etilishini taʼminlashdan iboratdir. Hamshiralik ishida boshqaruv fanining ahamiyati haqida gapiradigan boʻlsak, samarali boshqaruv bemorlarga xavfsiz va eng yuqori sifatli yordam koʻrsatilishini taʼminlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Samarali boshqaruv hamshiralarning ishdan qoniqishini oshiradi, ish yukini optimallashtiradi va ularning kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratadi. Hamshiralik ishida boshqarish fani zamonaviy sogʻliqni saqlash tizimining ajralmas qismidir. U faqatgina klinik jihatdan malakali xodimlarni emas, balki boshqaruv jihatdan ham bilimli va qobiliyatli hamshira rahbarlarni tayyorlashga qaratilgan boʻladi va bu sohaning barqaror rivojlanishi va bemorlarga sifatli yordam koʻrsatish uchun zarur hisoblanadi[4,5].

Materiallar va metodlar. Hamshiralik ishida boshqarish fanini oʻqitishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, boʻlajak hamshiralik rahbarlarining murakkab va doimiy oʻzgarib boruvchi sogʻliqni saqlash tizimiga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Anʼanaviy oʻqitish usullari bilan bir qatorda raqamli vositalar va innovatsion pedagogikalarni qoʻllash taʼlim jarayonining sifatini, samaradorligini va oʻquvchilarning jalb qilinish darajasini sezilarli darajada oshiradi[5,6].

Muhokama. Quyida hamshiralik ishida boshqarish fanini oʻqitishda qoʻllanilishi mumkin boʻlgan samarali zamonaviy texnologiyalar va ularning afzalliklari keltirilgan:

1. Oʻquv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS - Learning Management Systems):

Ushbu texnologiya kurs materiallarini (maʼruzalar, oʻquv qoʻllanmalar, amaliy ishlar) markazlashtirilgan holda taqdim etib, topshiriqlar, testlar va baholashni avtomatlashtiradi va talabalar oʻrtasida va oʻqituvchi bilan muloqotni (forumlar, chatlar) tashkil etish orqali talabalar progressini kuzatadi. Bunga Moodle, Canvas, Blackboard, Google Classroom kabi pedagogic texnologiya turlari misol boʻla oladi.

Ushbu texnologiyaning ahamiyati boshqaruvdagi ahamiyati shundan iboratki, u hamshiralik menejmenti boʻyicha keys-stadilar, loyiha boshqaruvi boʻyicha topshiriqlarni joylashtirish va munozarali mavzular boʻyicha onlayn muhokamalar oʻtkazishda samarali hisoblanadi.

2. Mobil oʻqitish (M-Learning): Ushbu oʻqitish texnologiyasi smartfon va planshetlar orqali oʻquv materiallariga istalgan vaqtda, istalgan joyda kirish imkoniyatini beradi. Hamshiralik ishida boshqarishdagi ahamiyatiga kelsak, hamshiralik menejmenti boʻyicha qisqa videomaʼruzalar, podkastlar, eslatmalar va tezkor savol-javob modullarini taqdim etadi. Bu, ayniqsa, vaqt taqsimoti bilan muammosi boʻlgan talabalar yoki amaliyotchilar uchun foydali hisoblanadi.

3. Maʼlumotlarni tahlil qilish va Biznes Intellecti (BI) vositalari texnologiyasi sogʻliqni saqlash maʼlumotlarini (bemorlar oqimi, kadrlar soni, xarajatlar, natijalar) tahlil qilish uchun dasturiy taʼminotdan foydalanish imkoniyatini beradi. Uning menejmentdagi ahamiyati shundan iboratki, u talabalarga butun jahon maʼlumotlari asosida qaror qabul qilish, sifatni yaxshilash loyihalarini rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish boʻyicha amaliy koʻnikmalarni beradi.

4. Gamifikatsiya (oʻyinlashtirish): ushbu texnologiya oʻquv jarayoniga oʻyin elementlarini (ballar, mukofotlar, darajalar, musobaqalar) kiritish orqali motivatsiyani oshirish imkoniyatini beradi. Menejmentdagi ahamiyati esa budjetni boshqarish boʻyicha oʻyinlar, kadrlarni rejalashtirish boʻyicha simulyatsion oʻyinlar, sifatni yaxshilash boʻyicha jamoaviy tanlovlarni taklif etadi. Bu talabalarni muammolarni hal qilishga va strategik fikrlashga undaydi.

5. Sun'iy intellekt (SI) Hozirgi kunda sun'iy intellekt jamiyatning barcha sohalariga kirib keldi. U orqali istalgan vaqtda va joyda ma'lumotlar bazasini shakllantirish va hatto murakkab savollarga ham yo'naltiruvchi javoblarni olish mumkin. Menejmentdagi ahamiyatiga keladigan bo'lsak, u murakkab menejment yo'nalishlari bo'yicha qaror qabul qilishda sun'iy intellekt asosidagi simulyatorlardan foydalanish, resurslarni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar bera oladi.

8. Kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) vositalarga: Google Docs, Microsoft Teams, Zoom, Slack lar misol bo'la oladi. Qo'llanilish maqsadiga ko'ra u talabalar o'rtasida loyiha ishlarini birgalikda bajarish, hujjatlarni tahrirlash, guruh yig'ilishlari o'tkazish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari menejmentdagi ahamiyati haqida gap borganda, hamkorlikka asoslangan o'qitish jamoaviy liderlik, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, hamshiralik menejmenti loyihalari ustida guruh bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi[7,8,9].

Natijalar. Shu o'rinda hamshiralik ishida boshqarish fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorlik va afzalliklarini ta'kidlab o'tish joiz. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamshiralik ishi boshqaruvida amaliy ko'nikmalar oshishiga, simulyatsiyalar va real ma'lumotlar bilan ishlash orqali esa nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lashga yordam beradi. Interaktiv va vizual texnologiyalar yordamida o'quv jarayonini qiziqarli qilish dars samaradorligini oshiradi. Mobil va onlayn platformalar orqali o'qish joyi va vaqtini tanlash imkoniyati esa moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Ma'lumotlarni tahlil qilish tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari hozirgi jadal rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar va zamonaviy texnika asrida raqamli savodxonlik jamiyatning barcha bo'g'ini singari tibbiyotda ham bo'lajak

hamshiralardan talab qilinadigan mihim ko'nikma hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hamshiralik ishida boshqarish fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shunchaki yangi vositalarni joriy etish emas, balki ta'lim sifatini o'zgartirish demakdir. Bu talabalarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni kelajakdagi murakkab boshqaruv vazifalariga har tomonlama tayyorlaydi. Ushbu texnologiyalar to'g'ri integratsiya qilingan taqdirda, hamshira rahbarlarining bilim, ko'nikma va kompetentlik darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Gaponenko I Y. Bilimlarni boshqarish. - M.: Eksmo, 2008.
2. Panfilov A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. - M.: Akademiya markazi nashriyoti, 2009-yil.
3. Professional pedagogika. Rossiya Ta'lim akademiyasi. Kasbiy ta'lim uyushmasi. - M.: APO nashriyoti, 1997-yil.
4. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan>
5. Huber, D.L. (Latest Edition). Leadership and Nursing Care Management. Elsevier.
6. Garrison, D.R., & Kanuka, H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The Internet and Higher Education, 7(2), 95-105.
7. Jeffries, P.R. (Latest Edition). Simulations in Nursing Education: From Conceptualization to Evaluation. National League for Nursing.
8. Nursalim, M., Al-Gharaibeh, M., & Al-Husami, N. (2021). The effectiveness of gamification in nursing education: A systematic review. Nurse Education Today, 102, 104938.
9. Rutledge, C., & Giddens, J.F. (2017). Preparing nursing students for leadership roles: Creating a culture of leadership. Nurse Educator, 42(5), 235-238.

